



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 25 - aprel

I-57-72-14-220-K/23

Yangihayot tuman hokimligi

Yangihayot tuman mahalliy budgetining 2023-yil qo'shimcha manbalari mablag'larini xarajatlarga yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasi va O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida" 2022-yil 30-dekabrdagi O'RQ-813-son Qonunning 13-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahri tarkibida Yangihayot tumanini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4888-son va "O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qaroriga asosan hamda tuman budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissyaning 2023-yil 17-apreldagi 9-xulosasini, shuningdek, tuman hokimligi tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qaroriga asosan, Yangihayot tumani mahalliy budgetining 2023-yilda shakllangan qo'shimcha manbalari mablag'larini xarajatlarga yo'naltirish bo'yicha tuman hokimligining takliflari, "E-qaror" elektron tizimi orqali jamoatchilik muhokamasiga 2023-yil 18-apreldagi ID-78858 raqami bilan KQL-814/23-sonli loyiha joylashtirilganligi inobatga olinsin.

2. Yangihayot tumani mahalliy budgetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan ilovada keltirilgan xarajatlar uchun 2 689 500,0 (ikki milliard olti yuz sakson to'qqiz million besh yuz) ming so'm mablag' ajratilsin.

3. Ushbu qarorda ko'rsatib o'tilgan xarajatlar uchun Yangihayot tumani mahalliy budgetining 2023-yildagi qo'shimcha manbalari hisobidan mablag'lar taqsimlash yuzasidan tuman hokimining tegishli qarorlari qabul qilinsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya B.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi



X.Inogamov

Xalq deputatlari Yangihayot tuman
Kengashining
2023 yil 25 apreldagi
I-57-72-14-220-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Yangihayot tumani mahalliy budgetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini
oshiri bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar**

ming so ‘m

T/r	Tashkilot nomi	Talab etiladigan mablag‘
1	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga	1 068 600,0
2	“Kasaba uyushmasi jamg‘armasi”ga	356 200,0
3	“Saxovat va ko‘mak jamg‘armasi”ga	178 100,0
4	“Ayollar daftari jamg‘armasi”ga	543 300,0
5	“Yoshlar daftari jamg‘armasi”ga	543 300,0
Jami:		2 689 500,0